

SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH

Ahatova Dilshoda Bahodir qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellektning zamonaviy jamiyat hayotidagi ahamiyati hamda uning ta'lim sohasiga ta'siri tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonini interaktiv va innovatsion shakllarda tashkil etish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Shuningdek, sun'iy intellekt vositasida bilim olish, masofaviy ta'lim orqali xorijiy tillarni o'rganish, sertifikatlariga ega bo'lish hamda shaxsiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish usullari yoritiladi. Maqolada, shuningdek, sun'iy intellektidan samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ham ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, masofaviy ta'lim, sertifikat, xorijiy tillar, innovatsion ta'lim, interaktiv o'quv jarayoni.

Sun'iy intellekt (SI) — bu kompyuter tizimlarining inson aql-idrokiga xos vazifalarni bajarish qobiliyatidir. Atamaning kelib chiqishi: “Sun'iy intellekt” atamasi 1956-yilda AQSHning Dartmut universitetida o'tkazilgan anjumanda amerikalik informatika olimi Jon Makkarti tomonidan birinchi marta ishlatilgan. Hozirgi kunda jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan sun'iy intellektlar bir qator vazifalarni bajarishga moslashtirilgan. Ular yordamida vazifalarini tez va aniq bajarish mumkin. Dunyoda zamonaviy texnologiyalar rivojlangan sari ularga bo'lgan talab tobora kengayib boradi. Zamon bilan hamqadam bo'lishni istagan har bir yosh avlod yangiliklarga qiziqadi va o'z bilim va ko'nikmalarini oshirishni istaydi. Bu borada sun'iy intellektlarning o'rni yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan chora tadbirlar orqali yoshlar ongida ularga bo'lgan ijobiy fikrda ekanliklarini ko'rishimiz mumkin. Har bir inson masofadan turib turli sun'iy intellektlar orqali bilimga ega bo'lishlari mumkin. Bu esa, vaqt va mablag'ni tejashda juda katta yordam beradi. Masofadan turib ham xorijiy tillarni o'rganish va bevosita suhbat qurish mumkin. Xususan, O'zbekistonda ham sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar sohasida bilim olish va sertifikatga ega bo'lish uchun quyidagi platformalar mavjud:

Edfix - ushbu platforma sun'iy intellekt bo'yicha kurslarni taklif etadi. Kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan ishtirokchilarga elektron shaklda PDF formatida sertifikat beriladi. Sertifikatda ishtirokchining ismi va familiyasi aks etadi.

Mohirdev - data science va sun'iy intellekt bo'yicha kurslar o'tkazib, har bir bitiruvchiga bilim darajasini ifodalovchi sertifikat taqdim etadi.

Astrum IT Academy - o'qishni tugatganingizdan so'ng, sizga Amerikaning Silikon vodiysida ishlash imkonini beruvchi QWASAR sertifikati topshiriladi. Bu sertifikat orqali Yevropa va Amerikaning nufuzli kompaniyalarida faoliyat olib borishingiz mumkin.

Sun'iy intellekt texnologiyalari til o'rganish jarayonini ham osonlashtirmoqda. Masalan, ChatGPT kabi sun'iy intellekt asosidagi chatbotlar orqali ingliz tilini o'rganish mumkin. Ular foydalanuvchilarga interaktiv mashqlar, suhbatlar va boshqa o'quv materiallarini taqdim etadi. Bundan tashqari, Duolingo kabi platformalar sun'iy intellekt yordamida foydalanuvchilarga til o'rganishda shaxsiylashtirilgan yondashuvni taklif etadi. Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida til o'rganish vositalari o'quvchilarga til ko'nikmalarini yaxshilash uchun shaxsiylashtirilgan ko'rsatmalar va mashqlarni taqdim etadi. Ushbu imkoniyatlar sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yordamida sertifikat olish va til o'rganishni osonlashtiradi.

Interaktiv o'quv jarayoni – bu o'quvchilarning faolligini oshirish va bilimlarni samarali o'zlashtirish uchun zamonaviy texnologiyalar va o'zaro muloqotga asoslangan ta'lim uslubi. Bu

jarayonda o'quvchilar o'qituvchi bilan yoki bir-birlari bilan faol aloqada bo'lib, muhokamalar, guruhli ishlash, amaliy mashg'ulotlar va interaktiv texnologiyalar (masalan, elektron doskalar, ta'lim ilovalari, virtual va qo'shimcha reallik texnologiyalari) orqali ta'lim oladilar.

Interaktiv ta'lim an'anaviy ma'ruza uslubidan farqli ravishda, o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishini, mustaqil fikrlashini va bilimlarni real hayotda qo'llay olishini ta'minlaydi. Bu metod motivatsiyani oshirishga, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga va ta'lim jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi. Barcha narsalarning ijobiy tarafi bo'lgan kabi salbiy ta'sirlari ham bo'ladi, sun'iy intellektdan foydalanganda undan to'g'ri, kerakli narsalar uchun foydalanish Shuningdek, sog'liq uchun ham zararli tomonlarini o'ylagan holda foydalanish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. McCarthy, J. (1956). Artificial Intelligence – A Proposal for the Dartmouth Summer Research Project.
2. Brown, P., & Jones, K. (2021). The Role of AI in Education. Cambridge University Press.
3. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion Rivojlanish Vazirligi. (2023). "Sun'iy intellekt va ta'lim" tadqiqoti.
4. Russell, S., & Norvig, P. (2020). Artificial Intelligence: A Modern Approach. Prentice Hall.
5. Luckin, R. (2018). Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education. Routledge.
6. Selwyn, N. (2019). Education and Technology: Key Issues and Debates. Bloomsbury Publishing.
7. Holmes, W., & Porayska-Pomsta, K. (2022). Artificial Intelligence in Education. Springer.
8. Mayer, R. E. (2021). Multimedia Learning. Cambridge University Press.
9. Li, X., & Lalani, F. (2020). The Future of Jobs Report. World Economic Forum.

IMPROVING LISTENING THROUGH AUTHENTIC MATERIALS: PODCASTS AND RADIO

Allanazarov Aybek

2nd Year Student, Faculty of Foreign Languages, KarSU

Scientific Advisor: Associate Professor A.N. Sadullaeva

The development of proficient listening skills in a new language poses significant challenges. Although classroom exercises provide a foundational understanding of linguistic concepts, they are frequently insufficient in preparing students for authentic interactions with native speakers, who may communicate at accelerated speeds, employ colloquial language, or exhibit diverse accents. In this context, authentic resources, such as podcasts and radio broadcasts, emerge as essential tools for language learners aiming to enhance their listening capabilities.

Authentic materials such as podcasts and radio programs offer a pragmatic solution by immersing learners in genuine speech patterns, varying accents, and real communicative contexts. This article aims to investigate how these resources can markedly improve listening skills, thereby enriching the language acquisition process.

Listening comprehension is widely acknowledged as one of the most challenging dimensions of language acquisition. Empirical research indicates that 78% of intermediate learners identify it as their foremost obstacle in language studies. Unlike reading, where learners can pause and revisit complex material, listening necessitates immediate cognitive processing of rapidly presented information, thereby introducing unique challenges.